

Ushbu tartib-qoidalar 2023 yil 23
iyundagi 19-sonli institut Kengashida
muhokama qilingan va tasdiqlangan.

“TASDIQLAYMAN”
Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti rektori v.v.b.
M.Z. Sharipov
“24.” 06 2023 yil

2023-2024 o’quv yilida Buxoro muhandislik-texnologiya institutiga ikkinchi mutaxassislikka o’qishga qabul qilish va imtihonlarni o’tkazish TARTIB-QOIDALARI

Institutga ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish uchun talabgorlarni qabul qilish O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdagi PQ-3183-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 sentyabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to’g’risida NIZOM”, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 930-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limni tashkil etish tartibi to’g’risida Nizom” hamda O’zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo’yicha Davlat komissiyasi bayonlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Oliy o’quv yurtlari bakalavriatura yo’nalishlari bitiruvchilarini ikkinchi va undan keyingi mutaxassisliklarga o’qishga qabul qilish haqidagi arizalari Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining ikkinchitalim.edu.uz elektron platformasi orqali qabul qilinadi. Talabgorlar tomonidan Nizomda ko’rsatilgan tartibda hujjatlar asl nusxasi institut qabul komissiyasiga topshiriladi.

Qabul jarayoni “O’zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to’g’risida”gi NIZOM va boshqa normativ-huquqiy jujjatlarga asosan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Hujjatlarni qabul qilishda va ularning haqqoniyligini aniqlashda qabul komissiyasini mas’uliyatini oshirish hamda ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumot olish bo’yicha kiruvchining birinchi ma’lumoti bilan taqqoslangan holda, o’quv rejalari va dasturlaridagi farqlar aniqlanadi (o’qish o’quv rejalariidagi fanlar farqidan qat’iy nazar bakalavriat ta’lim yo’nalishining ikkinchi kursidan boshlanadi).
2. Kiruvchining tegishli kursda o’qishi uchun o’quv rejalari va dasturlaridagi aniqlangan farqlarni topshirish tartibi va muddatlari belgilanadi.
3. Ikkinchi va undan keyingi mutaxassislikka qabul barcha uchun to’lov-kontrakt bo’yicha belgilangan qabul qoidalari va tanlov asosida amalga oshirilib, kirish sinovlarida eng yuqori ball to’plagan abituriyentlar qabul qilinadi.
4. Abituriyentlar ballar reytingi asosida belgilangan to’lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinadilar. Abituriyentlar ikkinchi mutaxassislikka kirish sinovlarini oliy ta’lim muassasasida o’qiydigan tilda topshiradilar.
5. Abituriyentlarga O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdagi PQ-3183-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 sentyabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to’g’risida NIZOM”, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 930-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limni tashkil etish tartibi to’g’risida Nizom”lar to’g’risida batafsil ma’lumot beriladi.
6. Abituriyent ikkinchi mutaxassislikka kirishda tanlagan yo’nalishining xususiyatiga mos kasbiy suhbatdan o’tadi.
7. Ikkinchi mutaxassislikka kirish sinovi umumiy ballari va suhbat mazmuni quyidagilardan iborat bo’ladi va ushbu baholash varag’iga asosan baholanadi :